

**BOSHLANG'ICH TA' LIMDA TABIIY FANNI
O'QITISHNING TA' LIM-TARBIYAVIY VAZIFALARI**

Nodiraxon Maxkamova

Zebuniso Odilova

Durdona Asliddinova

*Andijon davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari*

Annotatsiya

O'zbekcha: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim bosqichida tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari yoritilgan. Shuningdek, mazkur fan orqali o'quvchilarda ekologik madaniyat, tabiatga ehtiyotkor munosabat va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning ahamiyati ko'rsatilgan.

Русский: В данной статье рассматриваются основные образовательные, воспитательные и развивающие задачи преподавания естественных наук на начальном этапе образования. Также показано значение формирования у учащихся экологической культуры, бережного отношения к природе и научного мировоззрения.

English: This article discusses the main educational, moral, and developmental tasks of teaching natural sciences at the primary education level. It also highlights the importance of developing ecological culture, careful attitude toward nature, and scientific worldview among students.

Kalit so'zlar

O'zbekcha: boshlang'ich ta'lim, tabiiy fan, ta'limiy vazifalar, tarbiyaviy vazifalar, ekologik madaniyat.

Русский: начальное образование, естественные науки, образовательные задачи, воспитательные задачи, экологическая культура.



English: primary education, natural science, educational tasks, moral development, ecological culture.

Maqola matni

Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitish bolalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlar orqali o'quvchilar atrof-muhit, tirik va noorganik tabiat, hayvonot va o'simlik dunyosi, hamda inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalar haqida dastlabki tasavvurlarga ega bo'ladilar.

Kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat to'g'risida, o'zi yashab turgan joyi, tabiat boyliklari haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lishi kerak. Tabiatni o'zgartirish kishilarning mehnat faoliyati bilan bog'liq ekanligini ilk yoshlardan boshlab, ular ongiga singdirishni talab etadi. Shu talablarga ko'ra kichik yoshdagi o'quvchilarga:

- Jonli va jonsiz tabiat to'g'risida aniq bilimlar berish, ularning o'zaro bog'liqligini ochish.
- Odam organizmi va uning salomatligini saqlash haqida ma'lumot beradi.
- Bolalarni tabiatda kuzatishlar o'tkazish o'quv va ko'nikmalari bilan qurollantirish.
- Tabiatdan oqilona foydalanish va uni boyligini ko'paytirishga qaratilgan inson mehnati bilan tanishtirish.
- Jonajon tabiatda muhabbat, uni muhofaza qilishga intilishni tarbiyalash.

Umumta'lim muassasalarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlariga muvofiq tabiiy fan dasturiga kiritilgan o'zgarishlar ko'rsatilgan vazifalar bilan bir qatorda tabiiy fan kursida o'quvchilarning ekologiya, mehnat va gigiyena tarbiyasiga e'tiborni yanada kuchaytirishni, har bir o'quvchi gigiyena va tibbiyot sohalarida boshlang'ich bilimlarni egallash, yoshligidan o'z organizmini bilishi, uni tartibli saqlay olishi» uchun sharoitlar yaratilishini nazarda tutadi. Ta'limning tarbiyalovchi xarakteri uning mazmuni bilan belgilanadi. Shu bois tabiatshunoslik o'qituvchiga o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish uchun ijodiy bilim faoliyatini rivojlantirish uchun boy material beradi. Darsli barcha mavzular majmuasi tarbiya masalalarini o'z



ichiga oladi. O'quvchilarni odam mehnati uning jismoniy, ma'naviy sog'ligini manba ekanligiga ishonitirib, o'qituvchi mehnatga muhabbatni, mehnat ahlini hurmat qilish ruhida tarbiyalaydi.

1. Ta'limiy vazifalar

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish orqali bolalarga tabiat hodisalari, geologik va meteorologik jarayonlar, hayvonlar va o'simliklarning hayotiy jarayonlari haqida dastlabki ilmiy tushunchalar beriladi. Shuningdek, kuzatish, tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish kabi ilmiy faoliyat elementlari o'rgatiladi.

2. Tarbiyaviy vazifalar

Tabiiy fanlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarda tabiatga mehr, ehtiyotkorlik, tabiatni asrashga bo'lgan mas'uliyat kabi axloqiy fazilatlar shakllanadi. Bu esa ularni ekologik madaniyatli, ongli fuqarolar sifatida tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarda tabiat bilan do'stona munosabat va vatanparvarlik tuyg'usi rivojlanadi.

3. Rivojlantiruvchi vazifalar

Mavzularni o'rganish davomida o'quvchilarning tafakkuri, tasavvuri, nutqi va ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Mustaqil fikrlash, kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi. Amaliy mashg'ulotlar esa ularning qiziqishini oshirib, ilmiy izlanishga undaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitish bolalarda tabiatga nisbatan ongli munosabat, ilmiy qarash va ekologik madaniyatni shakllantiradi. Bu esa ularning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishlariga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. NURITDINOVA M. —TABIIY FAN O'QITISH METODIKASI|| TOSHKENT, 2005-YIL.
2. D. SHARIPOVA, D. XODIYEVA, M. SHIRINOV —TABIIY FAN VA UNI



O'QITISH METODIKASI|| DARSLIK. —BARKAMOL FAYZ MEDIA||
NASHRIYOTI, TOSHKENT, 2018-YIL, 458-B.

3. SH.MIRZAXMATOVA, D. PULATOVA. TABIIY FAN DARSLARIDA
INTERFAOL TA'LIM (USLUBIY QO'LLANMA) -T.: —YANGI ASR AVLODI||
2011-YIL. 44-B.

4. MATKARIMOV J.S. THE VIEWS OF UZBEK AND FOREIGN SCIENTISTS
ON THE FORMATION OF NATURAL SCIENCES|| MULTIDISCIPLINARY
AND MULTIDIMENSIONAL JOURNAL, 3(3), 2024-YIL, 44-48-B.